

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 11

NOVEMBER


Journal of

RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



IMFAKTOR
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-11

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 11 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-11>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энураровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1** “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

ANORBOYEVA Solixa Asqarjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

"Roman-german fakulteti"

"Ispan tili amaliy fanlar kafedrası"

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10133781>

“SHADOWING” METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim berish jarayoninig bugungi kundagi vazifalaridan biri chet tillarini o'rgatishda talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga mazkur maqola tarjimonlik kompetensiyasining mazmun-mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Maqolada tarjimonlik kompetensiyasi tushunchasi izohi, zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar hususan “shadowing” metodi yordamida ispan tilini o'qitishda tarjimonlik kompetensiyasining ahamiyati hamda milliy va xorijiy tajriba asosida uning o'rganilganlik darajasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, metod, axborot-texnologiya, xorijiy til, masofaviy ta'lim, texnika, tizim, tarjima, tarjimon, tarjimonlik, kompetensiya, tarjimonlik kompetensiyasi, mamlakat, rivojlanish, tarjimashunoslik.

НА УРОКАХ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА ПО МЕТОДУ “SHADOWING” УЧАЩИЕСЯ ОСВАИВАЮТ ПЕРЕВОДЧЕСКУЮ КОМПЕТЕНЦИЮ РАЗВИТИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье одной из задач образовательного процесса сегодня является научить студентов уметь работать самостоятельно в информационно-образовательных условиях, которые увеличиваются с каждым днем, разумно использовать потоки информации. В то же время данная статья посвящена раскрытию сущности переводческой компетенции. В статье раскрывается понятие переводческой компетенции, значение переводческой компетенции при обучении испанскому языку интерактивными методами, особенно “shadowing” метода в современном образовании, а также уровень ее изучения на основе отечественного и зарубежного опыта.

Ключевые слова: образование, педагогика, метод, информационные технологии, иностранный язык, дистанционное образование, методика, система, перевод, переводчик, перевод, компетентность, переводческая компетентность, страна, развитие, переводоведение.

INTERPRETIVE COMPETENCE IN STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE TRAINING THROUGH THE "SHADOWING" METHOD DEVELOPMENT

ANNOTATION

In this article, one of the tasks of the educational process today is to teach students to be able to work independently in information and educational conditions, which are increasing every day, and to use information flows wisely. At the same time, this article is devoted to revealing the essence of translation competence. The article reveals the concept of translation competence, the importance of translation competence when teaching Spanish using interactive methods, especially the "shadow" method in modern education, as well as the level of its study based on domestic and foreign experience.

Key words: education, pedagogy, method, information technology, foreign language, distance education, methodology, system, translation, translator, translation, competence, translation competence, country, development, translation studies.

O'qitishning interfaol usullarini bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga faol jalb qilingan bo'ladilar, ular o'rganayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zini qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi [1, B.276].

Bugungi kunda turli sohalarida chet tillarni yaxshi biladigan mutaxassislariga talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa filologik yo'nalishdagi OTMlarda tayyorlanayotgan chet tillari mutaxassislarini o'rganayotgan tillarini til sohiblari darajasida tayyorlashni taqozo etadi. Bunda chet tillarini o'qitishda talabalar nutqiy faoliyatining barcha turlarini birdek rivojlantirish nihoyatda muhim bo'lib, bu OTMlarda integratsiyalashgan ta'limni joriy etish, mashg'ulotlarni yangi zamonaviy innovatsion metodlar asosida tashkil etish va ta'lim jarayoniga samarali interfaol usullarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Biroq ta'lim jarayonida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani oqibatida, qo'yilgan maqsadga erisha olmaslik holatlari ham kuzatilmoqda. Aytish joizki, ko'p hollarda asosan chet mamlakatlarda tajriba amaliyotini o'tagan talabalarga bunday malakaga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda til ta'limiga innovatsion texnologiyalarni keng miqyosida joriy etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, D.P.Bespalko, A.Kushner, K.Rodjers, L.A. Kamenskiy, I.G.Pestalossi, J.G.Yo'ldoshevlarning ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsiya, axborot texnologiyasining va unda inson omili munosabat qo'yilgan talablar usul va uslublari pedagogik tizimning natijasini o'ziga bo'lsa ham samarali tomonga siljishga qaratilgan bo'lib, hozirgi 50-60% dan (pedagogik tizimning maksimal natijasi) hech bo'lmaganda 5- 10% ga o'stirishga olib kelishdan iborat [2, B.82].

Shu o'rinda usul, uslub va metod atamalari izohiga to'xtalab o'tishni lozim deb o'ylaymiz. Ta'lim jarayonida "usul" bu biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi, "uslub" esa biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi [3, B.98].

I.V.Raxmanov va M.Berman "metod" deganda ta'limning maqsadga yo'naltiruvchi yo'ldan iborat [2, B.87].

B.V.Belyaev esa ta'lim metodi deganda o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish usuli va yo'li hamda o'quvchilarning bu jarayondagi o'quv faoliyatining birligini tushunadi [4, B.61].

Didaktlar esa "metod" atamasini bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'qituvchilar dunyoqarashini shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va o'qituvchining ish usuli ekanini takidlaydilar. J.Jalolov "metod" terminiga ta'limda usullar yig'indisi va ta'limning yo'nalishi deb ta'kidlaydi [5, B.17].

Demak, ta'lim jarayonida interfaol usullarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili-bu muayyan, yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu o'rinda ispan tili mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirish yuzasidan, aynan “shadowing” metodidan foydalanish ko'zlangan natijalarga tezroq erishish imkonini berishini tajribalarimiz orqali o'rganib kelmoqdamiz.

Qaytarish tarjimonlami tayyorlashda eng muhim usullaridan biridir. Bu usul quloq eshitgichlar (naushniklar) yordamida qo'llaniladi. Bu usulda odatda ona tilidagi gapni eshitib va uni bir vaqtning o'zida shu ona tilida qaytarishga o'rgatiladi, chet tiliga tarjima qilib qaytarish keyingi bosqichda amalga oshiriladi. Eshitish va bir vaqtning o'zida eshitganini qaytarish — bu o'rganadigan qobiliyat. Tarjimonlar bu qobiliyat bilan tug'ilishlari shart emas. Bu ishni eplay olmagan tarjimonlar o'zlariga yomon odatlarni orttiradilar. So'zma-so'z qaytarish tarjimonlarni tayyorlashda mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

U ikkiga bo'linadi.

- Fonemik (shadowing) qaytarish va iborali (phrasal) qaytarish.

- Fonemik (phonemic) qaytarish - bu butun ma'no yoki so'zni kutmasdan turib har bir tovushning qanday eshutilgan bo'lsa shunaqa takrorlashdir. Ikkinchisi esa, bu iborali qaytarish ya'ni talaba so'zlovchining nutqini boshidan oxirigacha takrorlaydi. Tovushmatovush qaytarish iborali qaytarish usulidan oldin o'tilishi kerak. Bu usul odatda eshitib, ham bir zumda gapirish qobiliyatini o'stirishda ishlatiladi. Iborali qaytarish bu tarjimonning orqada qolib ketishketmasligini aniqlash uchun ham foydasi bor. Mazkur usul tarjimonni tayyorlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Qaytarish tezligi ko'p tadqiqot ishlarning mavzusi bo'lgan. Orqada qolgan vaqt tarjimaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qaytarish texnikasi bu tarjima qilishdan oldin qo'llanadigan usul. Gapni eshitib uni ozgina kechikish bilan qaytarish jarayoni — qaytarish deyiladi. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES

1. Anorboyeva S.A. “Ko‘p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2023. – 276-b.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog- o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T., Istedod. 2008. – 180 b.
3. Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. –T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. 2009.– 400 b.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.–T., O‘qituvchi nashriyoti. 2004.–104b.
5. Saidaliev S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan. 2004. –238 b.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-11

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz